

MITOXONDRIYA KASALLIKLARI VA HUYAYRA O‘LIMI

¹Abdullaeva G.T., ²Xosilova Z.B.

¹I.Karimov nomidagi TDTU professori v.v.b., b.f.d.

²Qarshi davlat universiteti o‘qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada hujayraning apoptoz yoki nekroz yo‘li bilan nobud bo‘lishida mitoxondriya membranasi permeabilizatsiyasi muhim hisoblanadi. Hujayra o‘limiga olib keluvchi signallarni ko‘pchiligini mitoxondriyaga keladi, masalan, bu jarayonda Bid va Bad kabi Bcl-2 oqsillari ishtirok etadi.

Hujayra ichki signallarining yangidan hosil bo‘lishining turli yo‘llari kaspazalar tizimining faollashuviga, sitozolda Ca²⁺, azot (II) oksid, amfipatik peptidlar va seramidlar konsentratsiyasining oshishiga, bevosita yoki bilvosita holatda, mitoxondriya ion o‘tkazuvchanligini o‘zgarishiga olib keladi.

Kalit so‘zlar: Miopatiya, Nevrologik, atrofiyasi, mioklonus, polineyropatiya, psixomotor, Mitochondrial, Alsgeymer, genlar, ATF.

Abstract: In the article, mitochondrial membrane permeabilization is important in cell death by apoptosis or necrosis. Most of the signals leading to cell death arrive at the mitochondria, for example, Bcl-2 proteins such as Bid and Bad are involved in this process.

Different ways of new formation of internal signals of the cell lead to activation of the caspase system, increase in the concentration of Ca²⁺, nitrogen (II) oxide, amphipathic peptides and ceramides in the cytosol, directly or indirectly, changes in mitochondrial ion permeability.

Key words: Myopathy, Neurological, atrophy, myoclonus, polyneuropathy, psychomotor, Mitochondrial, Alzheimer's, genes, ATF.

Аннотация: В статье проницаемость митохондриальной мембраны важна для гибели клеток в результате апоптоза или некроза. Большая часть сигналов, приводящих к гибели клеток, поступает в митохондрии, например, в этом процессе участвуют белки Bcl-2, такие как Bid и Bad.

Различные пути новообразования внутренних сигналов клетки приводят к активации каспазной системы, увеличению концентрации Ca²⁺, оксида азота (II), амфипатических пептидов и церамидов в цитозоле, прямо или косвенно, изменению митохондриальной ионной проницаемости.

Ключевые слова: Миопатия, Неврологическая, атрофия, миоклонус, полинейропатия, психомоторная, Митохондриальная, Болезнь Альцгеймера, гены, АТФ.

Mitochondrial kasalliklar bu mitoxondriyaning genetik, strukturaviy va biokimyoviy defektlar bilan shartlangan geterogen kasalliklar guruhidir. Mitoxondriyal kasalliklarga tashxis qo‘yishda klinik, biokimyoviy tahlillar zarur. Mitoxondriya patologiyasining asosiy biokimyoviy belgisi laktat-atsidozning rivojlanishidir, odatda, giperlaktatatsidemiya, giperpiruvatatsidemiya bilan birgalikda namoyon bo‘ladi. Mitoxondriya kasalliklarida serebrospinal eritmada pirouzum va sut kislotasi me‘yordagi konsentratsiyasining ortishi kuzatiladi.

Dastlab mitoxondriya kasalliklari nerv va mushaklar patologiyalarida o‘rganilgan. Keyinchalik ma’lum bo‘ldiki, mtDNK mutatsiyasi turli kardiomiopatiya, endokrinopatiya, oshqozon-ichak yo‘li, suyak ko‘migi zararlanishi va boshqa patologiyalarini chaqiradi. Lekin bulardan mushak to‘qimalarida va markaziy nerv sistemasining zararlanishidagi mitoxondriya kasalliklar ko‘proq qismni tashkil etadi.

Miopatiya mushaklarda namoyon bo‘lib, fiziologik og‘irliklarga chidamsizlik, ko‘z kasalliklarining rivojlanishida reflekslar ishtirokisiz, ptozda (qovoqlarning tushish kasalligi), mushaklarning kichrayishi va holsizlanishida namoyon bo‘ladi.

Nevrologik buzilishlarda – tutqanoq, insult singari ko‘rinishlar, neyrosensor karlik, ko‘rish nervlari atrofiyasi, mioklonus, polineyropatiya, psixomotor rivojlanishidagi o‘zgarishlar, migren, aqliy zaiflik va aqlning pasayishi kasalliklari kuzatiladi. Shu bilan birga mitoxondriyal disfunktsiyalari faqatgina turli organlar patologiyalarining rivojlanishida emas, ko‘proq, miokardning zararlanishida namoyon bo‘ladi.

Mitoxondrial proteinlar mutatsiyasi turli xil neyrodegenerativ kasalliklarda – Parkodam, Alsgeymer kasalliklarida, motoneyronlar funksional buzilishlari (Lou Gexrig kasalligi yoki amiotrof lateral skleroz) va ko‘p turli skleroz kasalliklarida ham kuzatilishi mumkin.

Bundan tashqari, mitoxondriyadagi erkin radikallar miqdori hujayra degradatsiyasi funksiyasida asosiy rol o‘ynaydi, qarish jarayonining negizida yotadi. Taxmin qilinishicha, bir qancha genlar mitoxondriyani uzoq muddat himoya qiladi va boshqaradi, shuningdek, hujayraning antioksidant himoyasini o‘zgartiradi.

Hujayrada ATF zahirasining kamayishi, anoksiya/gipoksiyadagi hujayra o‘limida, ksenobiotiklar zaharli ta’sir qilishda va stressda asosiy sabab hisoblanadi. Mitoxondriya funksiyasining o‘zgarishi bir qancha o‘sma hujayralarida ham kuzatiladi.

Mitoxondriya hujayra o‘limida: nekroz va apoptozda asosiy rol o‘ynaydi. Hujayraning nekrotik o‘limida sitozolda Ca^{2+} konsentratsiyasining sekin va uzoq vaqt davomida oshib borishi kuzatiladi. Bu sharoitda uniport uchun mitoxondriyadan Ca^{2+} ning kirishi sekin amalga oshadi. Bunda kuzatiladiki, mitoxondriyadagi Ca^{2+} ortishi amalda matriksdagi pH ni o‘zgartirmaydi va poraning sust o‘tkazuvchanlik holatida ochilishini oldini oladi.

Mitoxondriyadagi Ca^{2+} konsentratsiyasining me’yordan ko‘proq ortib ketishi, mitoxondriya membrana potensialining o‘zgarishiga, poraning yuqori o‘tkazuvchanlik holatga o‘tishiga va mitoxondriya bo‘kishiga, natijada, mitoxondriya funksiyasini o‘zgarishiga olib keladi va hujayra nekroz yoki apoptoz orqali nobud bo‘ladi.

Hujayraning apoptoz yoki nekroz yo‘li bilan nobud bo‘lishida mitoxondriya membranasini permeabilizatsiyasi muhim hisoblanadi. Hujayra o‘limiga olib keluvchi signallarni ko‘pchiligini mitoxondriyaga keladi, masalan, bu jarayonda Bid va Bad kabi Bcl-2 oqsillari ishtirok etadi.

Shu bilan birga, MRT induksiyasi mitoxondriyadan katabolitik gidrolazalar va ferment aktivatorlari (kaspazalar) chiqishini chaqiradi. Demak, mitoxondriya disfunktsiyasi (poraning ochilishi, nafas olishning ingibirlanishi, OF jarayonining ajralishi va ROS generatsiyasi) nekrozga olib keladi. Shunday qilib, poraning nekroz rivojlanishida roli katta bo‘lishiga qaramay, apoptozning ba’zi turlarini rivojlanishiga ham олиб келади.

Hujayra ichki signallarining yangidan hosil bo‘lishining turli yo‘llari kaspazalar tizimining faollashuviga, sitozolda Ca^{2+} , azot (II) oksid, amfipatik peptidlar va seramidlar konsentratsiyasining oshishiga, bevosita yoki bilvosita holatda, mitoxondriya ion o‘tkazuvchanligini o‘zgarishiga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Murphy A.N., Fiskum G., Beal M.F. Mitochondria in Neurodegeneration: Bioenergetic Function in Cell Life and Death // Journal of Cerebral Blood Flow & Metabolism. – 1999. – V. 19. – P. 231-245
2. Treem W.R., Sokol R.J. Disorders of the mitochondria// Semin. Liver Dis. – 1998. – V.18. – P.237-253.
3. Hekimi S., Guarente L. Genetics and the specificity of the aging process // Science. – 2003. – V. 299. – P. 1351–1354.
4. Correa F., Soto V., Zazueta C. Mitochondrial permeability transition relevance for apoptotic triggering in the post-ischemic heart. // Int. J. Biochem. Cell Biol. – 2007. – V. 39. – P. 787-798.
5. Brookes P.S., Yoon Y., Robotham J.L., Anders M.W., Sheu Sh.Sh. Calcium, ATP, and ROS: a mitochondrial love-hate triangle// Am. J. Physiol. Cell. Physiol. – 2004. - V. 287. – P. C817-C833.